

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Shernazarov, X.Jamolova	
“BOBURNOMA”ning forscha misralari	91
S.Halimov	
E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi	95
	TILSHUNOSLIK
Z.Akbarova, M.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....	100
G.Davlyatova	
Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....	103
B.To'rayeva	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari	107
Z.Alimova, S.Gafurova	
“SADOI TURKISTON” gazetasi va undagi bir maqola xususida	114
G.Raximova	
Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar	120
J.Ibragimov	
Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi	123
N.Xasanboyeva	
Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari	127
D.Ganiyeva, D.Ismoilova	
Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari	130
M.Qurbonova	
O'zbek tilshunosligida okkazonal birliklar tadqiqi	134
L.Masharipova	
Til va madaniyat	139
Sh.Jumaqulova	
O'zbek tilida “xursandchilik” etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi	144
X.Maripova	
Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari	147
A.Mattiyev	
Ravish tasnifiga doir yondashuvlar	151
A.Yuldashev	
So'z ma'nosi xususida.....	154
D.Gaziyeva	
Funksional va stilistik jihatdan media tili	159
U.Yokubbayeva	
“Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobida qo'llangan “yashil” leksemasining semantik takomili	164
N.Umarova, M.Abdulimova	
Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari	170
	MATEMATIKA
A.Xasanov, I.Jalilov	
$F_{0;3;3}^{2;2;2} [x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyaning qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdagi differensial tenglamalar sistemasi	173
D.Usmonov, A.Urinov	
Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar	185
	FIZIKA – TEXNIKA
M.Maxmudova, Sh.Shuxratov	
Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi.....	193

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA OKKAZIONAL BIRLIKLAR TADQIQI

STUDY OF OCCASIONAL UNITS IN UZBEK LINGUISTICS

ИССЛЕДОВАНИЕ ОККАЗИОНАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Qurbonova Moxinur Abdusoli qizi¹¹Qurbonova Moxinur Abdusoli qizi

– Farg'ona davlat universiteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya

Til murakkab, poyoni yo'q, cheksiz hodisadir. Uning atrofida olib borilayotgan ishlarning soni yanada ko'paymoqda. O'zbek tili tarixidagi muammoli masalalar asta-sekin yechimini topmoqda, bu yo'nalish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Tadqiqotning maqsadi okkazional birliklarning o'rganilishi masalasini ochib berishdir. Maqolada qiyosiy, komponent tahlil metodlaridan foydalalanilgan.

Maqolada okkazional birliklarning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, bu sohada erishilgan yutuqlar, tadqiqini topmagan masalalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, neologizmdan farqi, potensial so'zlar va okkazionalarning o'zaro qiyosi, ijodkorlarning o'ziga xos yangi so'z yaratish mahorati, okkazional birliklarning badiiy adabiyotga ta'siri kabi masalalar aks etgan.

Okkazionalizmlar har bir davrda har bir ijodkor tomonidan o'z uslubidan kelib chiqqan holda yaratiladi va ular noodatiy, g'ayritabiyligi bilan o'ziga xosdir. Okkazionalizmlar ijodkorning ma'lum maqsadi uchun yaratiladi va adabiyotlarda o'ziga xos vazifani bajaradi. Okkazional birliklarga doir ko'plab tadqiqotlaryaratildi va yaratilmoqda.

Abstract

Language is a complex, bottomless, infinite phenomenon. The number of works being carried out around it, is increasing. Problematic issues in the history of the Uzbek language are gradually being solved, many studies have been created in this direction. The purpose of the research is to reveal the issue of the study of occasional units. Comparative, component analysis methods are used in the article.

In this article it is reflected the study of occasional units in Uzbek linguistics, achievements based on them, issues that have not been researched, their characteristics, differences from neologisms, and the ability of creators to create new words.

Occasionalisms are created by each artist in each period based on his own style, and they are unique in their unusualness and abnormality. Occasionalisms are created for a certain purpose of the creator and perform a specific task in literature. Researches on occasional units have been created and carried out continuously.

Аннотация

Язык сложное, бездонное, бесконечное явление. Количество работ, проводимых вокруг него, увеличивается. Проблемные вопросы истории узбекского языка постепенно решаются, в этом направлении создано множество исследований. Цель исследования – раскрыть проблему изучения окказиональных единиц. В статье использованы методы сравнительного, компонентного анализа.

В статье рассматриваются вопросы изучения окказиональных единиц в узбекском языкознании, достижения на их основе, неизученные вопросы, их особенности, отличия от неологизмов, а также умения создавать новые слова специфичные для художников слова.

Окказионализмы создаются каждым творцом в каждый период на основе собственного стиля, и они уникальны своей необычностью и неестественностью. Окказионализмы создаются для определенной цели творца и выполняют определенную задачу в литературе. Создано и создается множество исследований по окказиональным единицам.

Kalit so'zlar: okkazionalizm, individual-uslubiyneologizm, potensialso'zlar, etimon, idiostil, neologizm, nutqiyhodisalar, favqulodda qo'llanishlar, adabiy norma, maromsiz yasamalar, tasodifiy yasalishlar.

Key words: occasionalism, individual-style neologism, potential words, etymology, idiostyle, neologism, speech phenomena, extraordinary usage, literary norm, irregular constructions, random constructions.

Ключевые слова: окказионализм, авторский индивидуальный стиль, потенциальные слова, этимоны, идиостиль, неологизм, речевые события, чрезвычайные применения, литературная норма, ненормированные образования, случайные образования.

KIRISH

Tilshunoslikda shunday birliklar borki, ular hamisha yangiligi, o'ziga xosligi, g'ayritabiyligi bilan ajralib turadi. Bunday birliklar tilshunoslikda **okkazional birliklar** nomi bilan yuritiladi. "Okkazionalizm [lot. Occasionalis – *tasodifiy*] tlsh. Umumiste'molga muvofiq, to'g'ri kelmaydigan, individual tarzidagi ma'noga ega bo'lgan til birligi [1,103]. A.Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining

TILSHUNOSLIK

izohli lug'ati"da okkazonalizmlarni **individual-uslubiy neologizm** atamasi bilan ataydi. "Mahsuldor bo'lmish model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizm" [2.74].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rus tilshunosligida N.I.Feldman *okkazional* terminini birinchi bo'lib qo'llagan [3.66]. Er.Xanpiraning dissertatsiyasi okkazonalizmlarni o'rganishga doir ilk monografik ishdir [4]. O'zbek tilshunosligida ham okkazonalizm va u bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan. Jumladan, S.Mo'minov okkazonalizm va neologizmni o'zaro qiyoslab, ularning farqli tomonlarini yoritib berdi [5]. A.Mamatov okkazonal so'zlar va ularning adabiy normaga munosabatini chuqur o'rganadi [6.202-229]. S.Toshaliyevaning "O'zbek tilida okkazonal so'z yasalihi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi okkazonal so'zlarning yasalihsiga oid ilk monografik ishdir [7]. S.Toshaliyeva tadqiqotlaridan birida okkazonalizm va neologizmning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tadi.

"Neologizmlar hozircha umumiste'mol lug'atiga kirib ulgurmagan, qo'llanishi vaqtincha sust, ammo umumnutqning faol birligiga aylanishi mumkin bo'lgan yangi so'zlar sanaladi: *tamaddinoma* (menyu), *teleko'prik* (te-lemost). Okkazonalizmlar keng ma'noda til amaliyotida sodir bo'lgan favqulodda qo'llanishlar (*bemor vagon*, *traktorlar shifoxonasi* kabi), tasodifiy yasalihsalar (*hosilzor*, *tarvuzzor*, *malikazor*) dan iborat g'ayriodatiy nutqiy hodisadir. Bir marta qo'llash uchun ijod qilinadi. Neologizmlar umumiy xalq uchun yaratiladi, ularning til lug'at tarkibiga singishi oson, iste'mol doirasi kengayib ular bora-bora neologizmlilik maqomini yo'qotadi: *kompyter*, *printer* kabi. Okkazonalizmlar esa faqat ma'lum kontekst uchungina xos, odatda bir martagina qo'llanadi. Lekin ularning ba'zilari tilning lug'at tarkibiga singishi mumkin: *kitobzor*, *qaroqchizor*" [8.71-74].

S.Toshaliyeva oraliq uchinchi birlik haqida ham to'xtalib o'tadi: "Potensial so'zlar til qonuniyatlari va me'zonlariga muvofiq tarzda mahsuldor so'z yasalihs andozalari asosida yaratilgan, binobarin, ehtiyoj tug'ilganda til lug'atiga o'tish imkoniyatiga ega bo'lgan yangi yasalmalardir. Ularni **imkoniyatdor so'zlar** deb atash mumkin: *zanjirqulf*, *oromkursi* (kreslo)" Demak, potensial so'zlar okkazonallardan farqli ravishda begilangan normalarga bo'ysungan holda yasalihs jihatidan neologizmlarga o'xshasa, okkazonalizmlar bilan bog'liq xususiyati bu ularning nutq hodisasi ekanligidir. Potensial so'zlarda o'ziga xos g'ayriodatiylik ham mavjud. S.Toshaliyeva yuqoridagi maqolasida okkazonalizmlarning turli usullar bilan yasalihsini keltirgan va ularni maromsiz yasamalar atamasi bilan ataydi.

Okkazonalizmlar o'ziga xos g'ayriodatiy yasalihs xususiyatiga ega. S.Toshaliyeva o'z tadqiqotlarida okkazonalizmlarning yasalihsini ilk bor monografik planda o'rgangan. "Nutqiy hodisalar, ayniqsa, g'ayriodatiy (okkazonal) qo'llash va yasalihsalar tildagi barqarorlik, doimiylik, odatiylik, maromlilik hamda shaxsiy-ijodiylik o'rtasidagi uzviy ziddiyatning o'ziga xos ifodasi bo'lib, til (xususan, so'z yasalihs) jarayonida yuz berayotgan o'zgarishlar-u yangilanishlarni, ma'noviy-uslubiy tovlanish (toifalanish)larni kuzatish uchun boy material bera oladi [8]. Ko'rinib turibdiki, okkazonallar ham tilimizning o'ziga xos boyligidir. Okkazonalizm hodisasi neologizm bilan yondosh hodisalardan biridir. Ularni bog'lab turuvchi asosiy xususiyatlardan biri bu ularda yangilik bo'yog'ining mavjudligi. Lekin bu ikkala hodisa bir-biridan farqlanuvchi belgilarga egadir. Neologizm – bu til hodisasi, okkazonalizm esa nutq hodisasi. Bu ikki tushuncha o'rtasidagi farqlar o'zbek tilshunoslari tomonidan ham talqin etilgan: "1) yuzaga kelish – yasalihs sababi, 2) atash-nomlash xususiyati, 3) qo'llanish tabiati, 4) yangilik, g'ayriodatiylik belgisi, 5) so'z qo'llash va so'z yasash qoida va maromlariga munosabati, 6) "ichki forma" (etimon) ning faxmlanishi va asoslanishi, 7) yasalihs jarayonining sharhlanishi, 8) faxmlanish xususiyati" [8]. O.To'xtasinova esa "O'zbek tilida leksik okkazonalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida okkazonalizmlarning yasalihs, leksikografik talqini, okkazonallik va potensionalizm, okkazonalizmlarning badiiy-estetik vazifasi kabi masalalarga to'xtalib o'tadi" [9]. O'z tadqiqotlarida okkazonalizm va neologizmning o'zaro munosabati va farqini quyidagi to'rt mezon asosida tahlil etadi :

1. Muallifning (yaratuvchining) bor yoki yo'qligi .
2. So'zning yangilik o'lchovi.
3. Til lug'at tarkibiga kirish yoki kirmasligi.
4. So'zning paydo bo'lishidagi tarixiy vaqt omili [9].

M.Abdupattoyev o'z tadqiqotlarida muallif idiostilining shakllanishida okkazonalizmlarning o'rni masalasiga to'xtalib o'tgan [10.27-29]. Okkazonal atamasi o'z navbatida idiostil atamasi bilan bog'liq tushunchadir. "Idiostil bu ma'lum bir ijodkorning til vositalaridan o'ziga xos foydalanishi, o'ziga xos tizim sifatida nutq muallifining betakror va noyob uslubi, boshqa mualliflar uslubidan keskin farq qiluvchi so'z tanlash mahorati. Muallif nutqning o'ziga xosligini belgilovchi lisoniy birliklar sifatida toponimik va okkazonal birliklar, oksyumoron, nominativ, to'liqsiz, so'z-gaplarni keltiradi. Darhaqiqat, okkazonallar individual lisoniy birlik bo'lib, ularning qo'llanishi muallif idiostilining yuqori darajada shakllanganligi va poetik mahoratidan dalolat beradi. *Qirq yilning naq yarmi yo'llardan o'tdi, Yarmi esa o'tdi bemorxonada* (A.Oripov). "Bundan ko'rinib turibdiki, okkazonal birliklar ma'lum bir ijodkorning o'ziga xos uslubini ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi.

Okkazonalizmlar poetik nutqni boyituvchi vositalardan biridir, ularning poetik nutqdagi o'rni esa B.Umurqulov tomonidan o'rganilgan. "Okkazonal so'zlar nutqiy ehtiyoj tufayli yaratilib, voqea-hodisani original ifodalash imkonini beradi. Shu jihatdan ham okkazonal so'zlar poetik nutqning xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim leksik birliklar sirasiga kiradi" [11.50].

Okkazonalizmlar ijodkorning uslubidan kelib chiqib yaratiladi. "G'afur G'ulom ko'proq yasovchi qo'shimchalar yordamida okkazonal so'zlar yaratsa, Uyg'un ko'pincha so'zlarni qo'shish yo'li bilan yangi so'z yasaydi. Uyg'un she'riyatida yasovchi affikslar yordamida hosil bo'lgan okkazonal so'zlar kam uchraydi. E.Vohidov va A.Oripov tomonidan yaratilgan okkazonal so'zlarning poetik matnlarda majoziy ma'noda qo'llanilib, fikrning ta'sirchanligini kuchaytirganini kuzatish mumkin. Hamza, G'.G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon she'riyatida *quyosh* so'zining majoziy ma'noda ko'plab qo'llanilganini uchratishimiz mumkin. E.Vohidov ham ana shu an'anani o'ziga xos tarzda davom ettirib, *-iston* qo'shimchasi yordamida *quyoshiston* so'zini yaratadi:

Har yurt o'z ahliga go'zal va ajib,

Ne baxt,

Quyoshiston ta'rifli diyor

Nurli peshonamga bo'libdi nasib" [11].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko'rinib turibdiki, har bir ijodkorning o'ziga xos okkazonal so'z yasash qolipi mavjud.

Fitrat asarida qo'llangan okkazonal so'zlarni tahlilga tortar ekanmiz, ularda **-zoda** affiksi okkazonal so'z yasashda ko'proq qo'llanganligining guvohi bo'lamiz [12]:

"(Ular) hazrat podshohg'a arz qiladilarki, ahvoli osoyishtalik beshigida belangan, **falakzada** mazlumlarning nolasini arshi a'lodagi sokinlarning qulog'ini kar qilarkan, ular kundan-kun ortib borayotgan abadulabad duosidan boshqa ishlari yo'qdir, deb xabar qiladi."

"Ay, **g'aflatzadalar!** Tokaygacha tajohul? Qachong'acha xudpisandliq? Islomni g'arib kunga soldingiz, islomni kimsasizlik holig'a keltirib qo'ydingiz, biroz hushingizga keling" (A.Fitrat "Hindistonda bir farangi ila Buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi").

Abdulla Avloniyning okkazonal so'zlar yasashdagi o'ziga xosligi shundaki, fors tilidan o'zlashgan **-on** qo'shimchasini ko'p o'rinlarda qo'llagan. Ma'lumki, **-on** qo'shimchasi bu fors tilidan o'zlashgan bo'lib, ko'plik ma'nosini ifodalaydi.

"Butun **islomiyon** g'aflatda, shaxsiylik ila mag'rur,

Xayoliga keturmaydur sira asri saodatni" (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild "Shoir ila to'ti" 148-bet).

Berilgan misolda qo'llangan *islomiyon* so'zi muallif tomonidan **musulmonlar** ma'nosida qo'llagan. Bu o'rinda sifatning otlashishi ro'y beryapti, mazkur qo'shimcha orqali sifatdan ot yasalgan o'rinlar ham ko'zga tashlanadi.

"Bo'ynini egmas kishig'a haqni bilgon nafs uchun,

Molin isrof aylamas **oliyjanobon** nafs uchun" (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild "Iffatli insonlar" 143-bet).

Ko'rinib turibdiki, turkumiga ko'ra ot okkazonalizmlar ko'p o'rinlarda qo'llanganligining guvohi bo'lamiz.

"Siza arzim budur, ey **shoiron**, ishqiya nazm etmang,

Qalam qosh, zulfi sunbul, sarvi qomatdan gapurmanglar!" (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild "Gapurmanglar" 151-bet)

TILSHUNOSLIK

Kuzatishlar va tahlil qilingan materiallar shuni ko'rsatadiki, Abdulla Avloniy *-on* qo'shimchasini ko'proq shaxs otlari tarkibida qo'llaydi.

"Chiqdi boshlab "Sadoyi Turkiston",

O'qungiz shavq birla, ey **do'ston**." (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild "Jarina muhiblarina" 146-bet).

"Johilon bilgaymu naf'i-sudini, ey **olimon**,

Tobakay yaxshi-yomonga yetmagay idrokimiz?" ("A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild "Biz nima holdamiz" 155-bet)

Yuqoridagi misollarda *shoir*, *do'ston*, *olimon* so'zlari shoirlar, do'stlar, olimlar ma'nosida kelgan.

O'zbek adabiyotida olib borilgan tadqiqotlar ko'proq ma'lum ijodkor uslubidan kelib chiqib yaratiladi. Masalan, J.A. Yo'ldashev "Usmon Nosir ijodida affiksatsiya usulida hosil qilingan okkazonal yasalmalarning lingvopoetik xususiyatlari" [13.218-221] nomli maqolasida Usmon Nosir she'rlarini tahlilga tortadi: "Usmon Nosir she'riyatida -chi, -kor, -gi, -lik, -chilik, -li, -ser, -be, -siz, -q, -dor, -la, -lan, -lash kabi yasovchi vositalar asosida yaratilgan *ijodchi*, *himoyakor*, *ezgi*, *ajalsizlik*, *umrli*, *uxloq*, *sermehnat*, *bekelishuv*, *voqifsiz*, *ziynatdor*, *davomdor*, *bayonla* kabi noodatiy yasalmalar uchraydiki, bu yasalmalarda individual neologik xususiyat, ijodiylik yaqqol ko'zga tashlanadi. Okkazonallik hodisasi bilan bog'liq yana ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. G.Roziqova Cho'lpon va Behbudiy asarlarida qo'llangan okkazonal birliklarni tahlilga tortadi. "Cho'lponning "Shaharni yoritish ishlari" nomli maqolasida neft so'zi o'rniga **yer yog'i** ishlatilgan: Elektrik istansiyalarida ko'b xarajat yer yog'i (neft) ga ketadir" [14.35]. H.Jamolxonov leksemaning uzual va okkazonal ma'nolarini tafsiflagan" [15.152-153]. Uzual ma'no leksemaning mazmun mundarijasida bor bo'lgan leksik ma'nodir. Masalan, *tozalamoq* so'zining uzual ma'nosi "uyni tozalab supurmoq" Demak, **uzual ma'no** bu so'zning barcha uchun tushunarli bo'lgan ko'rinishi hisoblanar ekan. "**Okkazonal ma'no** leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'lmagan, ayrim shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatidan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha "tus" berishi natijada yuzaga keltirilgan sun'iy ma'nodir.

Qattiq kayf qilgan er xotinidan iltimos qilyapti:

Kastumimni tozalab qo'y.

Tozaladim.

Shimimni tozalab qo'y.

Tozaladim.

To'flimni tozalab qo'y.

Iye, to'flining ham cho'ntagi bormi?"

Bu matnda keltirilgan **tozalamoq** leksemasi "ship-shiydon qilmoq" ma'nosini ifodalab, ijodkor yangi okkazonal ma'noni kashf qilgan.

M.Mirtojiev okkazonal va uzual ma'noning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tadi [16.68-69]. "Okkazonal ma'no bilan uzual ma'noni farqlay bilish ko'chma ma'no lingvistik ekanligi va polisemantik so'zni vujudga keltira olish yoki olmasligini aniqlash uchun asos bo'ladi. Aslida esa okkazonal ma'no hozircha bir o'rinda qo'llanganligi, uzual ma'no hamma tomondan qo'llanib ketganligi uchun farqlanuvchi faktlar emas. Okkazonal ma'no ham ko'pchilik tomonidan qo'llanishi va okkazonal ma'noligicha qolaverishi mumkin. Buning uchun *gul* so'zining "jonon" okkazonal ma'nosi bilan qo'llanishini eslab qo'yish kifoya.

Menga gulruh soqi-yu bulbulga gul tutdi qadah,

Mastdir ulkim, Navoiydek vasl rasvo emas (Navoiy).

Gul yuzing ochib, ey gul, majlisim guliston qil (Firuz).

Misollar ko'rsatib turibdiki, *gul* so'zi "yor", "jonon" kabi okkazonal ma'nolarni ifodalab kelgan. "Demak, so'zning ma'lum okkazonal ma'nosi qancha ko'p yashab, keng qo'llanib kelgan bo'lmasin, baribir, u uning uzual ma'noga aylanishi uchun sabab bo'la olmaydi." Olim okkazonal ma'nolar bir nechta sintaktik hodisalar natijasida hosil bo'lishini ta'kidlaydi.

1.O'z tabiati bilan elliptik ko'chma ma'nolar: *g'uncha* (lab).

2.Kontekstdagi sifatlovchili birikmalarning ixchamlashishi :

Shu chumchuqday yurak, shu kichkina jon

O'ziga jahonni sig'dirar bir kun (H.Olimjon).

3. Kontekstdagi o'xshatish konstruksiyalarining ixchamlashishi:

Aqlu balog'atning shotularidan

Yuksala beringiz sekundlar sayin (G'.G'ulom).

4. Bog'liq ma'no sifatida hosil bo'lgan majoziy ma'nolar: Ota yuragida alamlar qat-qat (H.Olimjon).

5. Ekspressivlik asosida hosil bo'lgan ko'chma ma'nolar: ovunchog'im, erkatoyim, kel qo'zichog'im.

Tildagi ibora, maqollarda ham okkazonallik hodisasi uchraydi. E.A.Mamatov o'z ishlarida frazeologik birliklarda okkazonallik hodisasiga to'xtalib o'tgan. "So'z ustalari aksariyat hollarda bir tematik guruhga tegishli so'zlarni almashtirib qo'llash asosida okkazonal frazeologizmlarni shakllantirsa, shu bilan birgalikda, mahsuldorlikka erishadilar. Quyidagi matnda bir tematik guruhga kiruvchi leksemalar almash qo'llanilgan: "Do'stona, to'g'ri tanqid, kuzatishlarga quloq solmagan odam *ildiziga buzoqboshi tushgan* mevali daraxt (Shuhrat). Tilimizdagi "ildiziga qurt ushdi" frazeologizmining "qurt" komponenti bir tematik guruhga kiruvchi "buzoqboshi" leksemasi bilan almashishi natijasida yangi okkazonal frazeologizm shakllangan" [17.139].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, okkazonalizmlar har bir davrda har bir ijodkor tomonidan o'z uslubidan kelib chiqqan holda yaratiladi va ular noodatiy, g'ayritabiiyligi bilan o'ziga xosdir. Okkazonalizmlar ijodkorning ma'lum maqsadi uchun yaratiladi va adabiyotlarda o'ziga xos vazifani bajaradi. Okkazonal birliklarga doir ko'plab tadqiqotlar yaratildi va yaratilmoqda. Okkazonal birliklarning milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida qo'llanilishi, ularning vazifasi, bu davr ijodkorlarining o'ziga xos uslubini ko'rsatuvchi vosita ekanligi kabi masalalar bizning tadqiqotimizning asosiy vazifalaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т., 2005. (An explanatory dictionary of the Uzbek language. – Т., 2005.)
2. Ҳоҗиев.А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т., 1985. (Hojiev.A Explanatory dictionary of linguistic terms. – Т., 1985.)
3. Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография // Вопросы языкознания. – 1957. – № 4. (Feldman N.I. Occasional words and lexicography // Questions of linguistics. – 1957. – № 4.)
4. Ханпира Эр. Окказиональное словообразование В.В. Маяковского (отыменные глаголы и причастия): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1956. (Khanpira Er. Occasional word formation of V.V. Mayakovsky (nominative verbs and participles): Abstract of the thesis. ... Candidate of Philology. – М., 1956.)
5. Мўминов С. Окказионал нутқий номинацияда мотивациянинг роли: Филол. фанлари номзодидис. –Т., 1990. (Mominov S. The role of motivation in occasional speech nomination: Candidate of Philological Sciences. –Т., 1990.)
6. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фанлари д-ри ... дис.– Т., 1991. (Mamatov A.E. Problems of lexical and phraseological norms in modern Uzbek literary language: Philol. Doctor of Sciences. – Т., 1991.)
7. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ... дис. –Т.,1998. (Toshaliyeva S. Occasional word formation in the Uzbek language: Candidate of Philological Sciences. –Т.,1998.)
8. Тошалиева С.И. Маромсиз ясамалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1993. - №3. (Toshaliyeva S.I. About immoral creations // Uzbek language and literature. – 1993. - №3.)
9. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадиий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. –Т.,2007. (Tokhtasinova O. Lexical occasionalisms in the Uzbek language and their artistic and aesthetic features: Candidate of Philological Sciences. –Т.,2007.)
10. Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фанлари д-ри ... дис.автореф. – Фар. 2021. (Abdupattoev M. Poetic syntax of the Uzbek language: Dissertation of the doctor of philological sciences. – Fergana 2021.)
11. Умурқулов.Б. Поэтик нутқ лексикаси – Т., Фан, 1990. (Umurkulov.B Poetic speech lexicon - Т., Science, 1990.)
12. Фитрат Танланган асарлар. – Т., 2000. (Fitrat - Selected works. – Т., 2000.)
13. Юлдашев Ж.У. Усмон Носир ижодида аффиксация усулида ҳосил қилинган окказионал ясалмаларининг лингвопоэтик хусусиятлари//Хоразм Маъмур Академияси ахборотномаси. – 2020, № 9. (Yuldashev J.U.: The linguopoetic features of occasional formations formed by the affixation method in Usman Nasir's works // Bulletin of the Khorezm Ma'mun Academy. – 2020, № 9.)
14. Розикова Г. Окказионал лисоний birliklar ҳақида // Тил ва адабиёт таълими // – 2014. № 6. (Rozikova G. About occasional linguistic units // Language and literature education // – 2014. № 6.)
15. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Т.: 2005. (Jamolkhanov H: Modern Uzbek literary language. – Т.: 2005.)
16. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Т.: Фан,1984. (Mirtojiyev M: Polysemy in the Uzbek language. – Т.: Science, 1984.)
17. Маматов Э.А. Ўзбек тили фразеологияси – Т., 2019. (Mamatov E.A.: Phraseology of the Uzbek language – Т., 2019.)